



## XALQARO SAVDODA ELEKTRON TIJORATNING AHAMIYATI

**Pulatxujaeva Dono Mirashidovna**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0000-0002-8069-0878

[donopulathujaeva@gmail.com](mailto:donopulathujaeva@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada xalqaro savdoning mamlakat iqtisodiyotiga tutgan o'рни va ahamiyati, xalqaro savdoda elektron tijoratni joriy etish istiqbollari, elektron tijoratni joriy etishdagi muammolar, imkoniyatlar, bu borada xorijiy olimlarning ilmiy-nazariy va amaliy qarashlari, tahlil qilingan. Xalqaro savdoda elektron tijoratni joriy etishdagi muammolarga tegishli tartibda xulosa va takliflar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** elektron savdo, xalqaro aloqa, logistika, xizmat ko'rsatish, aloqa, internet, kommunikatsiya, savdo platformalari, raqobat, innovatsiya.

## ВАЖНОСТЬ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ В МЕЖДУНАРОДНОЙ ТОРГОВЛЕ

**Пулатхужаева Доно Мирашидовна**

Ташкентский государственный экономический университет

**Аннотация.** В данной статье проанализированы роль и значение международной торговли для экономики страны, перспективы внедрения электронной коммерции в международную торговлю, проблемы, возможности внедрения электронной коммерции, научно-теоретические и практические взгляды зарубежных ученых на эту тему. Приведены в соответствующем порядке выводы и предложения по проблемам внедрения электронной коммерции в международной торговле.

**Ключевые слова:** электронная коммерция, международные коммуникации, логистика, сервис, связь, интернет, коммуникации, торговые платформы, конкуренция, инновации.

## THE IMPORTANCE OF E-COMMERCE IN INTERNATIONAL TRADE

**Pulatkhodjaeva Dono Mirashidovna**

Tashkent State University of Economics

**Abstract.** This article analyzes the role and importance of international trade in the country's economy, prospects for the introduction of e-commerce in international trade, problems in the jarring of e-commerce, opportunities, scientific-theoretical and practical views of foreign scientists in this regard. Conclusions and proposals have been made in the relevant order to the problems in the introduction of e-commerce in international trade.

**Key words:** e-commerce, international communication, logistics, service, communication, internet, communication, trading platforms, competition, innovation.

### **Kirish.**

Globalashuv jarayonlari chuqurlashayotgan va milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligi o' sayotgan pallada elektron tijoratning iqtisodiyotda alohida olingan sohasi sifatida rivoj topishi hamda iqtisodiyotning boshqa sohalarida axborot-kommunikasiya texnologiyalarining qo'lanishiga doir masalalar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Texnik imkoniyatlar kengayishi va mazkur sanoatning salohiyatini amaliyotda to'laqonli qo'llash milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligini kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi hamda shu tarzda xususiy va davlat tuzilmalarining strategik barqarorligini ta'minlaydi. Jahon bozorining zamonaviy rivojlanish yo'nalishlariga ko'ra, elektron tijorat sohasida innovatsiyalarning kiritilishi va ularning samarali qo'llanishi korxonalarda boshqaruv va texnologik jarayonlarning samaradorligini oshirishga zamin yaratib, iqtisodiyotning turli jabhalarida mavjud tovar va xizmatlar bozorlarini kengaytirib, yangi bozorlarni yaratish uchun sharoit yaratadi va shu orqali aholi turmush tarzi yaxshilanishiga sabab bo'ladi.

Jahonda elektron tijoratni samarali tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu munosabat bilan elektron xizmatlar sifatini yanada oshirish, B2B, B2C, B2G, C2C singari biznes platformalarini joriy etish va samaradorligini oshirish, keskin va murosasiz raqobat mavjud bo'lgan xalqaro savdo xizmatlari bozorining yangi segmentlariga kirib borish, elektron tijorat faoliyati samaradorligini ta'minlash bo'yicha innovatsion vositalar va zamonaviy talablar, elektron tijoratni boshqarish strategiyasini ishlab chiqish va takomillashtirish tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biridir (U.K. Sotvoldiyev, 2024). So'nggi yillarda O'zbekistonda elektron tijorat va uning platformalarini tashkil etish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur muhim qaror munosabati bilan mamlakatimizda elektron tijoratni jadal rivojlantirish, raqamli iqtisodiyotni asosiy "drayver" sifatida rivojlantirish, uning hajmini kamida 2,5 barobarga oshirish chora-tadbirlari 2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi (Farmon, 2022).

Bunday vazifalarni samarali amalga oshirish respublikada elektron tijoratni boshqarish mexanizmini takomillashtirish, elektron tijorat kompaniyalari faoliyatini boshqarishda yuqori samaradorlikka erishish, elektron tijoratni boshqarish samaradorligini baholash metodikasini takomillashtirishga qaratilgan, shuningdek, O'zbekistonda iqtisodiyotni raqamlashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil chora-tadbirlar ta'sirida elektron tijorat faoliyati asosiy parametrlar hisoblanib, prognozli ko'rsatkichlarni ishlab chiqish uchun ilmiy izlanishlarni talab etadi.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Gorodnova (2018) tomonidan elektron tijorat algoritmlarini inson hayotiga qo'shimcha imkoniyatlarga ega yordamchi sifatida kiritish bunday integratsiyaning asosiy ustunligini olish imkonini beradi – bu nafaqat qaror qabul qilish jarayonini tezlashtirish, balki ularning sifatini sezilarli darajada yaxshilashga olib kelishi asoslangan.

Jilin, Safaryanlarning (2020) tadqiqotlarida bugungi kunda kompaniyalarning 37 foizi algoritmik xizmatlar va elektron tijorat texnologiyalaridan foydalanishi, bu kelajakda yangi yuqori intellektli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari doimiy ravishda oshib borishidan dalolat berishi yoritib o'tilgan.

Arxipov (2020) tomonidan 2018-yilda dunyoda Big Data va biznes-analitika xizmatlaridan foydalanishdan tushgan daromad hajmi 168,8 milliard AQSh dollarini tashkil etishi, prognozga ko'ra, 2023-yil oxiriga bu ko'rsatkich 274,3 milliard AQSh dollaridan oshishi tahlillar asosida yoritib berilgan edi.

Elektron tijorat va elektron savdoga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar mavjud bo'lib, elektron savdo sohasida faoliyat yuritadigan xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining turli jihatlarini ko'rib chiqqanlar. Xususan, Yefimova va Tarasov (2018) o'z tadqiqotlarida internet-

savdoning an'anaviy savdoga nisbatan afzalliklari hamda uni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini yoritib berganlar.

Xususan, Zaxarov va Cherxanovalar (2019) o'z tadqiqot ishlarida elektron tijorat platformalarining o'sishi, korxonalarda kiberxavfsizlik tizimini takomillashtirish va xalqaro tanlov savdolarida kriptovalyutalardan foydalanish kabi elektron tijorat tendensiyalari tahlil qilingan.

Mahalliy olimlardan Ilxamova (2023) Zamonaviy sharoitda mamlakatning, ayniqsa uning viloyat iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri bu elektron tijoratdir deb keltirib o'tgan.

Maxkamov (2023) elektron tijorat ham rivojlanish bosqichlarida xuddi shu geoiqtisodiy va geosiyosiy jarayonlarga tayanadi. Mamlakatda yaratilgan yaxshi sharoit institutsional tizimning yaxshi tashkil etilishi geosiyosiy tomondan rivojlanishga, infrastrukturaning yaxshi tashkil etilishi, kadrlarning tayyorgarligi geoiqtisodiy jarayonlarga o'z ta'sirini ko'rsatadi deb baholaydi.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Ilmiy tadqiqotni shakllantirishda qiyosiy tahlil, ma'lumotlarning analitik tahlili, ilmiy abstraksiya, induksiya, deduksiya usullardan foydalandik. Muammolar o'rganilib, ularga yechib topishda qiyosiy va analitik tahlil usullaridan kengroq foydalanildi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Jahon iqtisodiyotida integrasiyalashuv jarayoning tobora chuqurlashib borishi, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va Internet tarmog'idan tijorat maqsadlarida faol foydalanish jarayonida elektron tijorat hajmining oshib borishi kuzatilmoqda. Elektron tijorat xizmatining dunyo miqyosidagi o'rni va roli yildan-yilga o'sib borayotgan bo'lib, bugun ushbu soha dunyo aholisining ko'plab qismini o'z doirasiga qamrab olmoqda.

Elektron tijorat xizmatini rivojlantirish mamlakatlar uchun beqiyos darajadagi imkoniyatlarni taqdim etadi. Global aloqa tarmoqlari va, birinchi navbatda, Internetning paydo bo'lishi elektron tijorat faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish sohasida haqiqiy inqilobga olib keldi. Natijada nafaqat biznes yuritishning yangi yo'nalishlari paydo bo'ldi, balki mavjud yo'nalishlar ham tubdan o'zgardi. Texnologiyalarning rivojlanishi xalqaro biznesga juda ham samarali tarzda yordam bermoqda. Hozirgi kunda dunyo bo'ylab millionlab odamlar elektron tijorat xizmatlaridan foydalanishni o'zlari uchun qulay deb hisoblamoqdalar. Bu tanlov esa elektron tijorat xizmatidan foydalanayotgan korxonalar uchun yuqori daromad oqimini ta'minlamoqda.

O'zbekiston Respublikasining "**Elektron tijorat to'g'risida**"gi qonunida elektron tijoratga quyidagicha ta'rif berilgan: "Axborot tizimlaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan, tovarlarni sotish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatishga doir tadbirkorlik faoliyati elektron tijoratdir".

O'z navbatida Elektron tijorat tizimi uch sinfga bo'linadi:

- chakana savdoni tashkil etish bo'yicha (biznes-iste'molchi, B2C);
- biznes hamkor bilan aloqalar o'rnatish (biznes-biznes, B2B);
- iste'molchilar o'rtasidagi savdo (iste'molchi-iste'molchi, C2C);


Misol sifatida – virtual auksion [www.Ebay.com](http://www.Ebay.com) ni keltirish mumkin. Elektron tijorat quyidagi o'ziga xos qulaylik va ustunliklarga ega:

- xalqaro operatsiyalarda axborot olish tezligi oshadi;
- ishlab chiqarish va sotish davri qisqaradi;

- arzon kommunikasiya vositalaridan foydalanish evaziga axborot almashish xarajatlari kamayadi.

Biznesning turli sohalarida electron tijorat dasturlari va xizmatlarini tatbiq etish natijalarini o'rganish bo'lib, bu electron tijorat tizimlarini yanada rivojlantirishning asosiy

yo'nalishlarini aniqlash imkonini berdi. Elektron tijorat va axborot texnologiyalarining hayotda keng qo'llanilishi bilan bog'liq asosiy muammolar, xavf va tahdidlar jamiyat, shaxs va davlat miqyosida ularni joriy etish ahamiyati yoritildi. Elektron tijorat xizmatlarini joriy etishning asosiy maqsadi texnologik va biznes jarayonlarida odamni to'liq almashtirish emas, balki inson mehnati samaradorligini va umuman biznes samaradorligini oshirishdir.



**1-rasm. Elektron tijoratda yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi (yillik) (siat.stat.uz)<sup>80</sup>**

Mamlakatizda elektron tijorat uchun hamma sharoitlar yaratilgan bo'lsa ham ammo elektron tijoratda yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymatning YaIM dagi ulushi sezilarli darajada o'sishni ko'rsatmayapti. Buning sababi mahsulot va xizmatlarning sifatida bo'lishi ham mumkin.

O'zbekiston uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamiyat hayotini tizimlashtirish jarayonini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon, axborot-texnologiyalari sohasida ta'lim standartlarining oshishi, milliy telekommunikatsiya tarmoqlarining modernizatsiyalashuvi, huquqiy bazaning shakllanishi, hokimiyat organlarida boshqaruv tizimlarining keng tatbiq etilishi, transport-aloqa tizimlarining avtomatlashtirilishi va ko'plab sohalar faoliyatini tizimli ravishda tashkil etishda o'z aksini topadi.

“Elektron tijorat” termini EDI (Elektronic Data Interchange – ma'lumotlarni elektron almashish), elektron pochta, internet, intranet (kompaniya ichida axborot almashish) va ekstranet (tashqi dunyo bilan axborot almashish) kabi texnologiyalarni o'z ichiga oladi.

Elektron tijorat paydo bo'lganiga qisqa fursat bo'lganiga qaramay, bu faoliyat bilan bog'liq AQSh bozorlarida yiliga o'rtacha 1,5-2 trln. AQSh dollari miqdorida mablag'lar aylanadi.

Umuman olganda elektron tijorat bu savdo sohasi sifatida ta'riflangan, kompyuter tarmoqlari orqali pul va savdo operatsiyalarini amalga oshiradigan, shu jumladan operatsiyalarni bajarish uchun zarur bo'lgan biznes jarayonlar: elektron marketing, hujjat aylanishi, tovarlar/xizmatlarni yetkazib berish kabi jarayonlarni o'zida jamlagan zamonaviy faoliyat turidir. O'z navbatida elektron tijorat tizimi uch sinfga bo'linadi:

- Chakana savdoni tashkil qilish bo'yicha (biznes-iste'molchi, B2C) – olcha.uz, abad.uz, texnoman.uz;

- Biznes hamkor bilan aloqlar o'rnatish (biznes-biznes, B2B) – market.vsm.uz;

<sup>80</sup> <https://siat.stat.uz/reports-filed/3058/line-data>

- Iste'molchilar o'rtasidagi savdo (iste'molchi-iste'molchi, C2C); Misol sifatida – olx.uz, uzybor.uz, e-auksion, www.ebay.com kabilarni keltirish mumkin.

Afzalliklari va kamchiliklari. Tadbirkorlikni internet orqali rivojlantirish biznes chegaralarini va xalqaro bozorga chiqish imkoniyatini kengaytiradi, haftada yetti kun davomida sotishga, iste'molchilarga vaqtni tejash bilan sifatli, qulay hamda ko'plab miqdordagi tanlov imkoniyati mavjud bo'lgan turli xildagi tovar va xizmatlarni qulay narxlarda sotib olish kabi afzalliklarini taklif etadi. Masofaviy xizmatlarning kengayishi boshqa sohalarga, masalan, yetkazib berish uchun transport vositalariga bo'lgan talabni oshiradi va shu kabi sohalarni yanada rivojlanishi uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Misol uchun, "Amazon" kompaniyasi endilikda elektron tijoratlardagi tovarlarni yetkazib berishda dronlar xizmatidan foydalanmoqda.

Prognozlarga ko'ra, 2024-yil oxiriga kelib, sotuvlarning 60 foizi internet orqali amalga oshirildi. Asosiy afzallik bu katta moliyaviy investisiyalar va xarajatlarni talab qilmasdan, jahon bozoriga chiqish qobiliyatidir. Ushbu savdo turiga cheklovlar jug'rofiy jihatdan aniqlanmagan. Bu iste'molchilarga global tanlovni amalga oshirish, kerakli ma'lumotlarni olish va joylashuvidan qat'iy nazar barcha potentsial yetkazib beruvchilarning takliflarini taqqoslash imkonini beradi. Bundan tashqari, yakuniy iste'molchi bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa tufayli, onlayn tadbirkor vositachilar tarmog'ini qisqartiradi, ularni butunlay yo'q qilish ehtimoli ham mavjud. Bu ishlab chiqaruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi provayder va oxirgi foydalanuvchi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri kanal yaratadi, bu esa maqsadli bozorning individual imtiyozlariga javob beradigan mahsulotlar va xizmatlarni taklif qilishga imkon beradi.

Elektron tijorat yetkazib beruvchilarga o'z mijozlariga yaqinroq bo'lishga imkon beradi, bu esa kompaniyalarning samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishga olib keladi. Natijada, iste'molchi xizmat sifatining yaxshilanishiga olib keladi, bu esa yaqinlikka, shuningdek sotishdan oldin va keyin qo'llab-quvvatlashga imkon beradi. Elektron tijoratning ushbu yangi shakllari tufayli endi iste'molchilar kuniga 24 soat onlayn do'konlarga ega bo'lmoqdalar.

Kam xarajatlar, odatda elektron tijorat bilan bog'liq bo'lgan yana bir muhim ustunlikdir. Muayyan ish jarayoni qanchalik sodda va qulay bo'lsa, uning muvaffaqiyat qozonish ehtimoli shuncha katta bo'ladi. Bu tranzaksiya xarajatlari va mijozlarga to'lanadigan narxlarning sezilarli darajada pasayishiga olib keladi.

Sotuvchi uchun elektron tijorat chakana savdo sohasida biznesni yuritishning eng arzon usullaridan biridir. Xaridor uchun bu tovarlarning yanada jozibador narxlari tufayli pulni tejash, shuningdek uyingizga qulay vaqtda tovarlarni yetkazib berish orqali vaqtni tejash imkoniyatidir. Onlayn do'konlarning afzalliklari, shuningdek, ularning kechayu-kunduz ishlashini va xaridor uchun qulay bo'lgan har qanday usulda sotib olish yoki xizmat haqini to'lash qobiliyatini (turli xil elektron to'lov tizimlaridan foydalanish, yetkazib berish paytida kuryerga naqd pul berish, qabul qilish punkti yoki omborda ishlaydigan xodimlar) o'z ichiga olishi kerak.

Virtual tijorat elektronika, maishiy texnika, mebel, kiyim-kechak va poyabzal, uy-ro'zg'or buyumlari segmentlarida keng namoyish etilgan. Ta'kidlash joizki, hozirgi vaqtda oziq-ovqat mahsulotlarini onlayn savdosi bozori, ayniqsa, yirik shaharlarda, asosan uyga oziq-ovqat sotish va yetkazib berish xizmatlarining rivojlanishi tufayli jadal rivojlanmoqda. Hech bir mamlakat global iqtisodiyotning ustuvorliklarini hisobga olmasdan iqtisodiy siyosatni oqilona shakllantirishni va amalga oshira olmaydi. Ayniqsa axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning jadal rivojlanishi globallashuvning obyektiv jarayonlari bilan uzviy bog'liq ravishda iqtisodiy faoliyatning yangi turini - elektron tijorat yoki elektron tijoratni shakllantirishga olib keldi. Savdo tashkilotlari va mijozlar o'rtasidagi munosabatlarda, tovarlarni taqsimlash jarayonlarini boshqarish, bozorni monitoring qilish, yetkazib beruvchilar, biznes sheriklar va davlat idoralari bilan samarali munosabatlarni rivojlantirishda elektron tarmoqlarning, birinchi navbatda Internetning imkoniyatlaridan faol foydalanilmoqda.



Keyingi yillarda jahon elektron tijorat aylanmasi barqaror o'sib bormoqda, eMarketer ma'lumotlariga ko'ra, 2018-yilda u 2,9 trln. AQSh dollari tashkil etgan, 2019-yil yakunlariga ko'ra, global elektron tijorat aylanmasi 3,5 trln. AQSh dollaridan oshishi, 2023-yilga kelib esa bu ko'rsatkich 6,5 trln. AQSh dollarga tashkil etgan.

Elektron tijorat bilan bog'liq infratuzilma – Internetdan foydalanish, to'lovlar, do'konlar va logistika – onlayn xaridlar hajmi oshishi uchun muvozanatli tarzda rivojlanishi kerak. Ba'zi MOMIH (Markaziy Osiyo mintaqaviy iqtisodiy hamkorligi) mamlakatlarida e'tiborga molik tendensiya xususiy banklarning ushbu turli komponentlarni integrasiyalashuviga jalb qilish bo'ldi. Gruziya, Qozog'iston, Mo'g'uliston va Tojikistondagi innovatsion banklar yangi to'lov vositalari va kreditlardan foydalanishni rag'batlantirish maqsadida o'z mamlakatlarida eng yirik onlayn bozorlarni yaratdilar.

Shuningdek, ular kuryerlik kompaniyalari bilan shartnoma tuzish, yetkazib berish startaplarini qo'llab-quvvatlash va Mo'g'uliston misolida milliy pochta operatorining qisman ulushini sotib olish orqali yetkazib berish yechimlarini ishlab chiqdilar. To'lovlarni va yetkazib berishni on-layn do'kon bilan birlashtirish muvaffaqiyat uchun juda muhimdir.

Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, elektron tijoratda yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymatning O'zbekiston YaIMdagi ulushi deyarli ahamiyatsiz. Elektron to'lov tizimi bo'yicha internet orqali xizmat ko'rsatadigan kompaniyalarga to'xtaladigan bo'lsak, ularning eng yirigi **Paypal** tizimidir. 1998-yili tashkil etilgan **PayPal** ayni paytda jahonning 190 mamlakatida faoliyat olib boradi va 164 milliondan ortiq ro'yxatdan o'tgan mijoziga ega. Tizim 24 ta milliy valyutada ish yuritadi (A.A. Ro'ziqulov, 2012).

Aynan **PayPal** tizimida birinchi bo'lib mijozlar o'rtasida to'lovni amalga oshirishda elektron pochtdan foydalanish joriy etilgan. Uning bizda mavjud tizimlardan farqi ham shundan iboratki, mijoz to'lovni o'z uyida yoki ish joyida Internet orqali amalga oshiradi. Himoyalangan bog'lanish orqali akkauntga e-mail va parol kiritilgandan so'ng tizimdan foydalaniladi.

Shuningdek, **PayPal** foydalanuvchilari bir-birlarining hisobiga pul o'tkazishlari ham mumkin. Mijozlar tizimdan foydalanganda mablag'larni o'zlarining bank kartalari yoki bankdagi hisob raqamlari yordamida qoplaydi. Ushbu tizim orqali nafaqat turli xizmatlar uchun to'lovni amalga oshirish, balki eBay kabi internet auksionlardan har xil mahsulotlarni sotib olish ham mumkin.

2003-yili tashkil etilgan yana bir yirik elektron to'lov tizimi–**Moneybookers** asosiy raqobatchisi **PayPal**ga yetarlicha qarshilik ko'rsatmoqda. Bugunga kelib 170 dan ortiq mamlakatda ushbu tizimning mijozlari mavjud. Yaqinda "**eKarmon**" elektron to'lov tizimi ham quyidagicha chiqish qildi:

Yaqin vaqtlar ichida O'zbekiston Respublikasi aholisida uyidan yoki ish joyidan chiqmagan holda oziq-ovqat mahsulotlaridan tortib maishiy va kompyuter texnikasini sotib olish, mobil aloqa, internet, telefon va kommunal to'lovlarni amalga oshirish, shuningdek, kino va teatrqa chiptalar sotib olish imkoniyati yuzaga keladi. Ortiqcha vaqt sarflab, do'konmado'kon yurishning hojati qolmaydi. Internet orqali ishlaydigan ushbu tizimning xavfsizligini ta'minlash maqsadida elektron raqamli imzodan foydalanilmoqda.

Zamonaviy bozor iqtisodiyotidagi elektron tijorat an'anaviy savdo usullariga xos bo'lgan moddiy xarajatlar va vaqt xarajatlarining katta qismini kamaytirish orqali iste'molchi uchun shiddatli raqobatda g'oliblikni ta'minlash vositasi sifatida paydo bo'ldi. Shu ma'noda, to'laqonli elektron tijorat rivojlangan bozor iqtisodiyotida yuqori darajadagi raqobat sharoitida paydo bo'ladi, yashaydi, rivojlanadi va bozor munosabatlarining mohiyati sifatida savdo-sotiq operatsiyalarini o'tkazish shakl va usullarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Shu bilan birga elektron-savdoning salbiy oqibatlarini ham ko'rsatib o'tish lozim. Ayrim tadqiqotlarga ko'ra dunyoda onlayn-tijoratning keskin o'sishi jiddiy iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqardi. Internet asrida rivojlangan mamlakatlar aholisi endi ko'p do'konlarga ehtiyoj sezmaydilar. Vaziyatning boshqa tomoni shundaki, xarid qilish markazidagi

do'konning odatiy formatida qolib, o'z vaqtida Internetga kira olmagan sotuvchilar bankrotlik xavotiriga ega. AQShda 2017-yil davomida 3500 dan ortiq do'konlar yopildi (S.N. Xamrayeva, Sh.X. Xasanov, 2020).

Tahlillarga ko'ra, besh yildan so'ng AQShda savdo markazlarining yarmi yopilishi mumkin. Bu esa o'z navbatida, ishsizlik darajasining ortishiga olib keladi. Sababi bitta operator bir vaqtning o'zida bir nechta sotuvchilarning o'rnini bosa oladi. Shuningdek, elektron tijorat orqali xizmatlar amalga oshirilganda, mahsulotlarni saqlash uchun katta omborxonalar, muzlatkichlarga bo'lgan talabni pasaytiradi.

Shuni aytish mumkinki savdo sohasida elektron axborot texnologiyalaridan foydalanish bozor tovar-pul munosabatlarining asosi va mohiyati sifatida ishlab chiqaruvchidan tovarlar (xizmatlar) harakatida vositachilar sonini (ya'ni tovar ayirboshlash) qisqartirish hisobiga tovarlar (xizmatlar) bozorining samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Iste'molchiga, kapital aylanishini tezlashtirish, tranzaksiya xarajatlarni sezilarli darajada pasaytirish, mintaqaviy xo'jalik-iqtisodiy komplekslarni qayta qurish jarayonlarini faollashtirish imkonini beradi.

Elektron tijoratning rivojlanish darajasiga global tarmoqning kirib borish darajasi va foydalanuvchilar soni kabi ko'rsatkichlar bevosita ta'sir ko'rsatadi. Texnik nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasi interneti mamlakatda elektron tijoratni rivojlantirishga tayyor. Mamlakatimizning hududining katta qismi internet bilan qamrab olingan: internetdan foydalanuvchilar sonining tezlik bilan o'sishi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi kuzatilmoqda, bu tovarlar va xizmatlarni xarid qilish uchun zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanadigan potensial xaridorlar soniga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

### Xulosa va takliflar

Elektron tijorat mexanizmlarining rivojlanishi va barqaror ishlashi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar to'g'risida dastlabki xulosalarni chiqargan holda, quyidagi xulosa va takliflarni keltirish mumkin. Elektron tijoratni rivojlantirish jamiyatimiz uchun quyidagi natijalarni beradi:

- Elektron tijoratning rivojlanishi O'zbekiston mehnat bozori tuzilmasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Yuqori axborot texnologiyalarini sanoatlashtirish minglab yangi ish o'rinlarini yaratadi.

- O'zbekiston iqtisodiyotining barqarorlashishi, tovar va xizmatlarning raqobatbardoshligi kuchayishi va elektron tijorat rivojlanishining bir paytda sodir bo'lishi eksport imkoniyatlarining oshishiga olib keladi.

- Elektron tijorat aholi turmush darajasining yaxshilanishi, marketing, menejment kabi sohalarning rivojlanishini ta'minlaydi.

- Elektron tijorat sohasida chuqur ilmiy izlanishlar olib borish zarur.

- Ilmiy-amaliy konferensiyalar o'tkazish, xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda loyihalar yaratish, ilmiy ishlar, maqolalar yozish, shu sohada internet-resurlarini, media materiallarini yaratish, doimiy forum va virtual ko'rgazmalar tashkil etish, kadrlar tayorlashda elektron tijoratning nafaqat texnik, balki iqtisodiy va huquqiy xususiyatlarini ham inobatga olish, eng asosiy muammolardan biri – malakali kadrlarni tayyorlash uchun oliy ta'lim muassasalarida zamon talablariga javob beruvchi kompleks laboratoriyalarni yaratish lozim.

- Aholiga telekommunikatsiya-aloqa xizmatlarni ko'rsatish sohasida raqobatni kuchaytirish. Bu esa o'z navbatida aloqa kompaniyalari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatining oshishiga, narxlar darajasining tushishiga va elektron tijorat uchun ma'lum internet zonasining yaratilishiga olib keladi.

- AKT sohasiga investisiyalarni kiritish uchun va unda chuqur islohotlarni olib borishda qulay huquqiy sharoitning ko'rsatilgan tartibda doimiy mavjud bo'lishini ta'minlash.

- Axborot texnologiyalarining butun O'zbekiston bo'ylab keng tarqalishini ta'minlash. Nafaqat viloyat markazlarida, balki chekka qishloqlarda ham axborot texnologiyalarining joriy qilinishi elektron tijorat hajmining yuqori darajada oshishiga olib keladi.

**Adabiyotlar/ Lumebamypa/ Reference:**

Baxtiyor Maxkamov, Gulnora Ismoilova, & Bobur Raximov (2023). Elektron tijorat infratuzilmasi va uning geoiqtisodiy ahamiyati. *innovations in Technology and Science Education*, 2(10), 974–983. Retrieved from <https://humoscience.com/index.php/itse/article/view/1278>

Farmon (2022), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-Yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida 28.01.2022 yildagi PF-60-son.

Global Ecommerce (2018): Statistics and International Growth Trends (Infographic). <https://www.shopify.com/enterprise/global-ecommerce-statistics>

Ilxamova Y.S. (2023) "Elektron tijorat: tushunchasi, maqsadlari va asosiy yo'nalishlari" 2023-01-20, 136-140 b.

Ефимова Н. А., Тарасов А. С. (2018) Совершенствование работы интернет-магазина // Вестник Белгородского университета кооперации, экономики и права. – №. 5. – С. 174-183.

Жилин В.В., Сафарьян О.А. (2020) Искусственный интеллект в системах хранения данных // *Advanced Engineering Research (Rostov-on-Don)*. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/iskusstvennyy-intellekt-v-sistemah-hraneniya-dannyh>  
<https://unctad.org/press-material/global-e-commerce-hits-256-trillion-latest-unctad-estimates>

Захаров А.Н., Чехранова Т.А. (2019) Тенденции развития электронной торговли в международной практике *Российский внешнеэкономический вестник*. № 6. С. 102-106.

Рўзикулов А.А. (2012), "Электрон тижорат: имкониятлар, муаммолар ва ечимлар" "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 3, март.

Сатволдиев У.К. (2024). Ўзбекистонда электрон тижоратнинг ривожлантиришининг ўзига хос хусусиятлари. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 4(03), 217-227. [https://doi.org/10.55439/AFA/vol4\\_iss03/152](https://doi.org/10.55439/AFA/vol4_iss03/152)

Хамраева С.Н. Хасанов Ш.Х. (2020) "Жаҳон электрон савдо хизматини ривожланиш ҳолати ва таҳлили" "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 321-328 бб.